

O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Musurmanova Sabina Obidjonova

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti talabasi

Dunyoda globallashtirish jarayonlarining tobora tezlashib borayotgan sharoit asosiy strategik masalalar yechimini hal qilishda oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini yanada takomillashtirilgan ravishda boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanib bormoqda. XXI asrning boshidanoq dunyoda ochlik va to'yib ovqatlanmaslikni bartaraf etish yo'lidagi taraqqiyot rivojlanishi sekinlashdi, bunga sabab sifatida esa global isish, parnik effekti, suv resurslaridan noto'g'ri foydalanishlarni keltirish mumkin, buning natijasida millionlab dunyo aholisi ovqatlanish uchun yetarli oziq-ovqatsiz qola boshladi. Dunyo miqyosidagi oziq-ovqat dasturining hisob-kitob natijalariga ko'ra, 79 mamlakatda 349 million kishi oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini boshqarishda 30.08.1997-yilda qabul qilingan

“Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida”dagi qonun asosiy hujjat hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holatda har bir ushbu sohadagi faoliyat va uni boshqarish qonun doirasida bo'lishligi talab etiladi. “Oziq-ovqat mahsulotining sifati

Va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ular oziq-ovqat mahsuloti muomalasi sohasida ish olib borayotgan yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun majburiydir.”[1,2]

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini yanada rivojlantirishda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi “Oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va narxlar barqarorligini ta'minlash, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foiz, go'sht –25 foiz, meva-sabzavot –28 foizga yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari ko'rsatkichlari, hududiy hokimliklarning ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash borasidagi vazifalarini aniq belgilash, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish bo'yicha choralarni nazarda tutish” alohida vazifalar belgilangan.



Ayni vaqtda respublikamizda ham oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qancha olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bulardan N.M.Ziyavitdinovanning ilmiy izlanishlari natijasida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirish va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqilib, tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan.

Xorijiy tadqiqotchi olimlardan Bitner Mann D., Sfaim R., Stevenson V.J., Tompson A.A, Vebster F. Va boshqalar. Sanoat sohasini, jumladan, oziq-ovqat sanoati faoliyatida oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga hamda soha faoliyatini vertikal va gorizontal klasterli yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib brogan. [3,4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mutorovna N. N. MAMLAKATIMIZDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA UNING DOLZARB MASALALARI //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – T. 8. – C. 36-40.

2. Turg'unov M. M. OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA KLASTERLI BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – T. 8. – C. 20-24.

3. Б.Ш. Ганиев, У.Г. Икромов, К.Г. Авезов, У.М. Мардонов, Ш.Т. Хожиев, И.О. Косимов Изучение составно-структурных особенностей продуктов кислотной переработки глины месторождения «Азкамар». V-Международная конференция-симпозиум. «Химическая технология и нано технология, химия высокомолекулярных соединений, а также научные исследования в области органических веществ и композиционных материалов – проблемы и решения». Ташкент. – ООО "INNOVATIVE CHEMICAL TECHNOLOGIES". – 2021 г. 25 ноябрь. – С. 238-240.

4. Б.Ш. Ганиев, У.Ф. Икромов, Қ.Ф. Авезов, Ў.М. Мардонов. Азкамар гилининг кислоталарда эрувчанлиги ва эритмалари таркибини ўрганиш. «Қорақалпоғистон Республикасида кимё ва кимёвий технология соҳалари ривожининг долзарб масалалари» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 24 март. Нукус. 2021 г. Б.110-112

